



INSONIYATGA QARSHI JINOYATLAR

ALLABERGANOVA BARNO UMID QIZI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XUSUSIY HUQUQ FAKULTETI 1-BOSQICH TALABASI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola oilada yoshlarga va axloq qarshi huquqlari, ya'ni inson huquqlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganligini, Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi - insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini, inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qadr-qimmat, erkinlik, inson huquqlari, daxlsizlik, ulug'lash, qadriyat, yoshlar, oila.

АННОТАЦИЯ: В данной статье показано, что права молодежи и нравственность в семье, то есть права человека, закреплены, прежде всего, в Конституции Республики Узбекистан, что основным направлением нашей Конституции является прославление человека и его жизни, человека и его жизни, свободы, чести, достоинства посвящена разъяснению того, что ценность и другие неприкосновенные права считаются высшей ценностью.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, достоинство, свобода, права человека, принадлежность, прославление, ценность, молодежь, семья.



ABSTRACT: This article shows that the rights of young people and morals in the family, that is, human rights, are first of all enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, that the main direction of our Constitution is to glorify man and his life, man and his life, freedom, honor, dignity is dedicated to clarifying that the value and other inviolable rights are considered to be of the highest value.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, dignity, freedom, human rights, belonging, glorification, value, youth, family.

KIRISH. Inson hayoti, uning qadr-qimmati barcha narsadan ustun turadi, ammo bugungi kunda ortib borayotgan jinoyatlardan biri hayotga qarshi jinoyatlardir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ushbu jinoyatlar sodir etilishi avvalo, oiladagi nosog'lom muhit, tarbiyaning mustahkam emasligi, turli illatlarga qo'shilib qolish va boshqalardir.

O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinishi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikki qismdan iborat bo'lib, ushbu moddaning 1-qismida "oddiy" odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Albatta, odam o'ldirish "oddiy" bo'lishi mumkin emas. Jinoyatni JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish inkor usuli bilan amalga oshiriladi. Ishda, ya'ni sodir etilgan qilmishda JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi va JK 98–102-moddalaridagi yengillashtiruvchi holatlarning borligi aniqlanadi. Agarda yuqorida aytilgan holatlar bo'lmasa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi .[1]

O'ch olish maqsadida, rashk tufayli, tuzalmaydigan kasalni azobdan qutqarish maqsadida jabrlanuvchining iltimosiga ko'ra, mushtlashish vaqtida o'ldirish, bezorilik



belgilari bo'lmasa, hasad, qo'rqqoqlik va hokazo tufayli sodir etilgan odam o'ldirish JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o'ldirishdan boshqa barcha holatlarda o'ch olish maqsadida shaxsni o'ldirganligi uchun aybdor JK 97-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Dastlab aytib o'tilgan holatda odam o'ldirganlik JK 97-moddasi 2-qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi, buning uchun odam o'ldirish aynan shaxsiy munosabatlar tufayli o'ch olish maqsadida sodir etganligini aniqlash lozim bo'ladi.

Shaxsiy munosabatlar tufayli o'ch olish maqsadida odam o'ldirishdan bezorilik oqibatida odam o'ldirishni farqlash lozim. Bezorilik oqibatida odam o'ldirishga jabrlanuvchining ahamiyatga ega bo'lmagan harakati (chekish uchun sigareta bermaslik, biror-bir korxonaning qayerda joylashganligini aytmasslik va hokazo) bahona bo'ladi yoki u hech bir sababsiz ham amalga oshiriladi.

O'ch olish motivi jabrlanuvchining xulq-atvori, xatti-harakati tufayli bevosita odam o'ldirilishidan oldin yoki ancha ilgari vujudga kelishi mumkin.

Rashk tufayli odam o'ldirish ham JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Odam o'ldirish motivi sifatida rashk o'zida ishonchsizlik, egoizm, qahr-g'azab kabi unsurlarni jamlagan bo'ladi. Ko'pincha rashk tufayli odam o'ldirishga er yoki xotinning xayoliy xiyonat qilganligi, jabrlanuvchining turmushga chiqishga yoki uylanishga rozilik bermaganligi yoki jabrlanuvchining nikohsiz birga yashash to'g'risidagi taklifni rad etganligi sabab bo'ladi.[2]

Insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush va urush davrida tinch aholini o'ldirish, ularni yo'q qilish, qul qilish, sotish, surgun qilish va boshqa qat'iy choralarni qo'llash, shu bilan birga siyosiy, irqiy, diniy sabablarga ko'ra ularni ta'qib qilish yoki qayerda amalga oshirilganidan yoki ular davlatlarning ichki huquqini buzish yoki buzmasligidan qat'iy



nazar, tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni nazarda tutadi. 1976-yil BMTning xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning javobgarligi to'g'risida modda loyihasini ma'qulladi va shunga ko'ra enosit (uy, turar joyini yo'q qilish), qulchilik va kolonial hukumronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlarni ichiga oladi.

Shu sababli, huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlar soni ortib boradi. Bunga 1991-yil xalqaro huquq komissiyasi tomonidan qabul qilingan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasi misol bo'la oladi, bu kodeks loyihasi jinoyatlar hamda xalqaro harakterdagi jinoyatlarni bir-biridan farqlamaydi. Shuning uchun unda umum e'tirof etilgan qoidalarga asosan xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar aytilishi mumkin: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish kolonial hukumronlik va chet el hukumronligining boshqa prinsiplari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar shu bilan birga atrof-muhitga qasddan jiddiy zarar yetkazish.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 152-moddasiga quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritildi: «hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga



qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar". Sog'lom avlod jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonida inson huquqlarining buzilishi haqida hisobot e'lon qildi. [3]

Hisobot Oliy komissar Mishel Bacheletning ushbu lavozimdagi muddati tugashidan bor-yo'g'i bir necha soat oldin, Shveysariya vaqti bilan soat 23:48 da e'lon qilindi.

48 sahifalik hujjatda Sinszyanda yashovchi 23 uyg'ur, 16 etnik qozoq va bir qirg'iz bilan suhbatlar o'rin olgan.

Hisobot mualliflarining ma'lum qilishicha, 2016 yildan beri respondentlarning 26 nafari o'zboshimchalik bilan hibsga olingan yoki Xitoyning qayta tarbiyalash lagerlarida majburiy mehnatga jalb qilingan.

BMT huquq faollari ham Shinjonda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bahonasida inson huquqlarining jiddiy buzilishini hujjatlashtirgan.

Bu qonunbuzarliklar "insoniyatga qarshi jinoyat bo'lishi mumkinligi" ta'kidlangan.



“Inson huquqlari buzilishi bahonasida aksilterrorizmga oid qonunlar xalqaro inson huquqlari normalari va standartlari nuqtai nazaridan juda muammoli. Hukumatga keng ko‘lamli tergov, taqiq va bosim o‘tkazish huquqini beruvchi qonun juda noaniq, keng va tushunarsiz ta‘riflarni o‘z ichiga oladi”, deyiladi Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi (IHBOKB) hisobotida.

Hisobot mualliflari, jumladan, qayta tarbiyalash lagerlarida mahbuslarga nisbatan qiynoqlar, shafqatsiz muomala va majburiy davolash haqidagi xabarlarning to‘g‘riligini tasdiqlagan.

“IHBOKB tomonidan taqdim etilgan hujjatlar qonunbuzarliklar bo‘yicha aniq statistik ma‘lumotlarni to‘plash uchun yetarli emas, ammo qayta tarbiyalash lagerlaridagi kamsitish muhiti bunday muassasalarda inson huquqlari buzilishining keng tarqalganligini tasdiqlash uchun yetarli”, deya ta‘kidladi BMT.

Huquq faollarining ta‘kidlashicha, qayta tarbiyalash lagerlarida musulmon ozchilik vakillari asosiy inson huquqlaridan mahrum, diniy o‘ziga xoslik, so‘z erkinligi, shaxsiy daxlsizlik va ko‘chib o‘tish huquqi noqonuniy ravishda taqiqlangan.

Hisobot mualliflarining ta‘kidlashicha, Xitoyning repressiv va kamsitish amaliyoti barcha chegaralardan oshib ketgan, ko‘plab aholi hibslar va qayta tarbiyalash lagerlarida majburiy mehnat tufayli oilasidan ajralib qolgan yoki bosim tufayli mamlakatni tark etishga majbur bo‘lgan.

Hisobot Pekinni qayta tarbiyalash lagerlari, qamoqxonalar va shunga o‘xshash hibsxonalarda o‘zboshimchalik bilan ushlab turilganlarni zudlik bilan ozod qilishga, Shinjon-Uyg‘ur muxtoriyatidagi oilalari ular bilan bog‘lana olmagan shaxslarning qayerda ekani haqida ma‘lumot berishga, terrorizmga qarshi qonunlarni qayta ko‘rib chiqishga, Milliy xavfsizlik va ozchiliklar huquqlari bo‘yicha zudlik bilan qayta tarbiyalash lagerlaridagi huquqlar poymol etilishi bo‘yicha tekshiruvni tashkil etish va mintaqadagi



masjidlar, ibodatxonalar va qabristonlarning vayron qilingani haqidagi da'volarga aniqlik kiritib, aniq ma'lumotlarni taqdim etishga chaqirish bilan yakunlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yosh avlodning qadrlanmagan jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi. Kelajakni ishonib topshirish uchun har qanday jamiyat o'sib kelayotgan yosh avlodni qadrlamog'i, uning har tomonlama sog'lom qilib tarbiyalanishiga sharoit yaratib bermog'i lozim. Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Ma'lumki, keyingi vaqtlarda O'zbekiston milliy qonunchiligining xalqaro standartlarga uyg'unligini ta'minlash sari dadil olg'a siljimoqda. [4]

Fikrimizning dalili sifatida shuni aytilish mumkinki, davlatimiz bola huquqlari kafolatlari to'g'risida, Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida va bola huquqlarini himoya qilishga doir boshqa qator qonunlarni qabul qildi. Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarni ta'minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish maqsadida 2019 yil 22 aprelda yana bir huquqiy hujjat: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarni yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinbosari - Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Shuning uchun davlatimiz yuqoridagi qarorda belgilangan vazifalarni bajara borib, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, bolalar hamda ular qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy



manfaatlari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erikliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi kafolatlarini ta'minlab beradi. [5]

Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiya muassasalarini tamomlagandan keyin ularning ijtimoiy moslashuviga, qonun hujjatlari talablariga javob beradigan turar joy bilan ta'minlanishiga ko'maklashadi. Bola huquqlarini yanada keng doirada kafolatlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 maydagi "Inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi navbatdagi qarori Bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda bajarishi, daxlsizlik huquqidan foydalanishi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emasligi kabi qoidalarni qat'iy belgilab qo'ydi.

Davlat bolaning shaxsi, uy-joy daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Yoshlarning erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday murojaatlarni bola to'liq



muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yoshlar hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganidan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishlari shart. Shunday ma'lumotlar olingan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rish shart.[6]

XULOSA

Umuman olganda, Davlatimiz bola huquqlarini nechog'li kafolatlanganligini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarda emas, balki qator normativ-huquqiy aktlarda ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar bo'limida tegishli javobgarlik normalari o'rnatilgan.

Chunonchi, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarga jalb qilish, voyaga yetmagan bolalarni tilanchilik qilishga majbur qilish, o'n olti yoshga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, ularga nisbatan uyatsiz buzuvchi harakatlar qilish kabi jinoyatlar uchun qat'iy jazo choralari belgilab qo'yilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlatimiz bola huquqlarini himoya qilish yuzasidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan normalarni hayotga izchil tadbqiq etish yo'lida olib borayotgan siyosati Bolaga va uning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Biror bir bolaning huquqi sud organining asoslantirilgan qaroridan tashqari hech bir organ yoki mansabdor shaxs tomonidan cheklanishi mumkin emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to`g`risida”gi O`RQ 407-son qonuni
2. O`zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan“Huquqbuzarliklar profillaktikasi to`g`risida”gi O`RQ 371-son qonuni
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan PF 6196-son farmoni
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-aprelda qabul qilingan PQ 5050-son qarori[http](http://lex.uz)
5. [//lex.uz](http://lex.uz)
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-"O'zbekiston"-2021
7. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari" Toshkent-2009.